

“OZOD” ROMANDA OBRAZ TALQINI VA KOMPOZITSION  
O‘ZIGA XOSLIK

**Maqsud Ergashev**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti assistant-o‘qituvchi*

***Annotatsiya:** Maqolada Yozuvchi Isajon Sultonning “Ozod” romanidagi obrazlar talqini va kompozitsion o‘ziga xoslik hamda asardagi timsollar mohiyatiga singdirilgan inson umrining qadr-qimmatini, bu g‘oyalarni ifoda etishda ijodkorning poetik mahorati masalalari tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Qur‘on, hadis, davr, shamol, yo‘l, tafakkur, matn.*

Roman – odam va olam munosabatlarini o‘ziga xos yo‘sinda, serqatlam kompozitsion yaxlitlikda idrok etuvchi janr. Unda mohiyatan dunyo badiiy tajribalari sintezlashgan bo‘ladi. Zotan, hech bir romannavis izlanishlari faqat bir milliy adabiyot doirasida cheklanib qolmagan. Romaniy tafakkur poetik ifodasi badiiy xronotopning uch tarkibli zamon-makon shakllari ishtiroki – “xronotop qopqasi orqali”<sup>1</sup> amalga oshadi. Shu bois, janrda kehadigan sinkretizm, sintetizm, differensiatsion va modifikatsion jarayonlar hamisha tarixiy poetika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Mustaqillik davrida tarixiy-madaniy, ijtimoiy-ma‘rifiy va psixologik jihatdan qayta uyg‘onib, o‘z tarixiy asoslariga qaytayotgan milliy adabiy-estetik tafakkur roman doirasida zamonaviyllashish sari harakatlanmoqda. Janr amaliyotida kechayotgan estetik yangilanishlarga tayanib, aytish mumkinki, postsovet makonidagi milliy romanlar endilikda, taqlid bosqichidan asta-sekin sintetizm va differensiatsiya jarayonlariga o‘tmoqda. Milliy roman janriy belgilari, kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar olami, turfa motivlarga murojaat etish yo‘sinlari, uslubi tinimsiz tozarish va yangilanish og‘ushida ekani yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Ammo kanonlashuv mexanizmining ishga tushganiga ham ancha bo‘ldi. Jumladan, roman o‘ziga nisbatan kichikroq janrlar va boshqa badiiy birliklarni bemalol “hazm” qilish orqali sintetik mohiyat kasb etmoqda.

Milliy roman ko‘plab janrlarga xos xususiyatlarni o‘z tarkibiga singdirib olayotgan ekan, bunday sinkretik jarayon uning sintetik bosqichda ekani va ichki tabiatida poetik tarmoqlanish paydo bo‘lishi tabiiylikini ko‘rsatadi. Janrning har bir ichki shakllariga xos muayyan belgi-sifatlar ham sekin-asta oydinlashmoqda. Afsuski, shakllanayotgan yangi kanonlarni yaxlit tasavvur etishga imkon beruvchi umumlashma xarakterdagi tadqiqotlar yuzaga kelmadi. Bizningcha, o‘zbek romani sintetik taraqqiyoti ayni bosqichidagi romannavislarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish imkonini beradi:

<sup>1</sup> Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар. Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси. – Т.: Akadernashr, 2015. – Б. 43

1. Poetik tafakkuri taqlid bosqichi bilan bilvosita aloqador adiblar. Ular roman shakli, mazmuni va poetik ifoda jihatlarida o‘zlari taqlid qilayotgan ob’ektdan uncha yiroqlashmagan ijodkorlardir.

2. Poetik tafakkurida sof germenevtik munosabat yetakchilik qiluvchi adiblar. Ular namuna-ob’ektini o‘ziga maqbul yo‘sin va badiiy-estetik niyat ijrosiga muvofiq shakl va mazmunda yangilashni uddalashmoqda.

Ta’kidlash o‘rinliki, biz ikkinchi guruhga mansub sanagan adiblarga milliy romanning yangi ichki shakllari, betakror poetik ifoda yo‘sinlari yuzaga kelishiga munosib ulush qo‘shmoqda. Yangilanayotgan milliy romanlar sinkretizmida Qur’oni karimda keluvchi voqealar (jannat hayoti, bashariyat vakillari yaratilishi, Hobil va Qobil qissasi, Nuh alayhissalom to‘foni voqeasi kabi) hamda ularning miflashgan talqinlarida mujassam ilohiy ibrat birlamchi manba vazifasini o‘tamoqda. Bu tipdagi yangilanishlar namuna-ob’ektiga madaniy munosabat ustuvorligi jihatdan mohiyatan an’anaviydir.

O‘zbek romanlarining “Donishmand Sizif” (X.Do‘stmuhammad) kabi ayrim namunalarida qadim Yunon adabiy an’analariga xos syujet, kompozitsiya, obraz, motiv va detallarning ilg‘or Yevropa romanlari bilan o‘zaro uyg‘unlashib, islomiy negizda yangicha talqin qilinishi kuzatilmoqda. Zamon va makonning mustaqillik davri kesimida milliy roman sintetik bosqichi ijodkorning ob’ekt-namunaga munosabati, poetik mahorati, uni qanday shakl va yo‘sinda badiiy talqin etishiga ko‘ra muttasil o‘zgarib, yangilanib bormoqda. Shu ma’noda, hozircha uning qay tartib va yo‘sinlarda kechayotgani, qardosh adabiyotlardagi ayni tipdagi jarayonlar bilan nechog‘lik tutashligini aniqlash ancha mushkul. Bu hol maxsus yondashuv usullarini talab etadi va monografiyaning ob’ekti va maqsadiga kirmaydi.

Shunisi aniqki, zamonaviy o‘zbek romanlari uchun muayyan hududiy adabiyot uzil-kesil “namuna” vazifasini o‘tayotgani yo‘q. Zotan, sintetizm tabiatan muayyan madaniy-tarixiy, badiiy-estetik kanonlar doirasi bilan cheklanuvchi sun’iy hodisa emas. U mohiyatan ulkan qamrovli, umuminsoniy poetik tafakkur mahsulidir. Filologiya fanlari doktori U.Jo‘raqulov “Xamsa” xronotopi badiiy sintez hodisasi ekanini ishonchli dalillashga muvaffaq bo‘lgani ham bu fikrni to‘la tasdiqlaydi<sup>2</sup>.

Istiqlol davrida yuzaga kelgan “Fano dashtidagi qush”, “Rang va mehvar”, “Zarradagi olam” (A.Dilmurod), “Bozor”, “Donishmand Sizif” (X.Do‘stmuhammad), “Go‘ro‘g‘li” (N.Eshonqul), “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, “Yo‘l” (U.Hamdam), “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik” (Isajon

<sup>2</sup> Жўракулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. – Филол. фан... д-ри. дисс... – Т.: 2017. – 264 б.

Sulton) singari romanlarda umumturkiy va jahon adabiyotida sayqal topgan qadimiy mavzularga murojaat qilish kuchaydi. So‘z nafasati hamda ma’no serqatlamligiga e’tibor ortdi. Bu asarlarda janrlararo uzviy ichki aloqadorlik: mif, fantastika, detektivlik va ilmiylik sintezlashib, sinkretiklashib ketmoqda. Adabiyotshunoslikda ayni hodisa “postmodern” metodiga asoslangan intilishlar (A.Rasulov: “Postmodernizm da akslangan o‘zlik”) sifatida ham baholandi.

Albatta, yuqoridagi mislsiz ulkan ilmiy, tarixiy-adabiy, badiiy-estetik meros zamonaviy romanchilikda to‘la milliylashyapti, taassub qilish hollari sodir bo‘lmayapi,- deyish ham o‘zimizni aldashedan bo‘lak ish emas. Global dunyo voqeligi shiddatini his qilib, azal kotibi sharaflagan inson va uning uchun bunyod etilgan olam (sayyoralar, oy, quyosh, yulduzlar va nihoyat ona zaminning dala-dashtlari, tog‘- toshlari, daryo-dengizlarilari va ularda yashayotgan hayvonot, nabotot va jamodot) qismati haqida qayg‘urayotgan odamni tasvirlayotgan zamonaviy o‘zbek romannavislari tajribasida Sharq va G‘arb adabiyoti ilg‘or an’analari sintezlashmoqda. Bu jarayonda muallif intellekti, uning dunyoqarashi va poetik mahorati muhim o‘rin tutmoqda.

O‘zbek adiblari har gilyohda bir mo‘jiza ko‘rib, ular timsolida insonni tasavvur qilib, sharaflab qalam tebratishyapti. Ular muazzam borliqning azaliy garmoniyasini chuqur badiiy idrok etib, romaniy olam yaratishmoqda. Ayni vaqtda, olam yaxlitligi – jamodot, nabotot, sayyoralararo bog‘liqlik teran anglangan zamonaviy o‘zbek romanlari tom ma’noda milliydir. Zotan ko‘l, tog‘, daryo va shamoldan tortib, to popushak, qizilishton, sa’va, kakku, po‘kka, qarg‘a, boyqushgacha bo‘lgan yaxlit birlik manzarasini poetik ifodaga ko‘chirish (Isajon Sulton, “Ozod” romani) ijodiy intellektning milliy zamini mustahkamligining bosh belgisidir. Sharq-musulmon falsafasi, nafasatshunosligi, adabiyotshunosligi kabi o‘zbek romani ham, yuqorida ta’kidlanganiday, faqat ijtimoiy reallikka asoslanuvchi badiiy voqelik bilan qanoat tuymaydi. Demak, gap adabiy-falsafiy merosimizni vorisiylik asosida qayta idrok etishga borib taqaladi. Bu asarlar folklorga xos soddalik, navoiyona ruh, rumiyona falsafadan tashqarida o‘z izohini topmaydi.

“Rang va mehvar”, “Zarradagi olam”, “Boqiy darbadar”, “Ozod” kabi romanlar bo‘ylab kezib yuruvchi mo‘ysafid chol obrazi har bir kitobxon badiiy didiga ko‘ra: tajribali dehqon, Rumiy, Navoiy, Xayyom, Mashrab, hatto Oybek va Mirtemir bezovta ruhi sifatida tasavvur qilinadi. A.Dilmurod va I.Sulton millat dahosining barhayot ruhiga tayanadi. Unga yukunadi, taqdiri azal va abadiyat falsafasini anglashga intiladi.

Qizig‘i shundaki, adiblar hatto o‘ziga zamondosh shoirlar nafis so‘zi botiniga yashiringan ma’nolar xazinasiga ham ilinj-la boqadi. “Yo‘l” romanida U.Hamdani ijodkor bo‘z yigitning er yetish, ma’naviy kamol topish yo‘li merosiy xazinani qayta

idrok etish, odam bolasining ibtidodan intihogacha bo‘lgan necha mingyilliklarga cho‘zilgan maqsadliyu bemaqsad uzun hayot yo‘lini taftish qilish, diniy-ilohiy manbalarni mushohada etish, nihoyat Rumiyl hamda Navoiyga yukunish orqali kechadi. “Zarradagi olam” romanida A.Dilmurod ham mingyilliklar aro fikriy mushohada asnosida har zarrada bir hikmat, har ulug‘ hikmatda anglangan mangu haqiqatni his etadi. I.Sulton “Ozod” romanida qoyadagi na‘matak (Oybek), majnuntol tagida o‘tirgan mo‘ysafidga (Mirtemir) ishora qiladi. Shubhasiz, yuqoridagi kabi hollar ustozlar qismati, adabiy-ma‘naviy merosidan bahramandlik, abadiy ruhlari oldidagi chuqur qarzdorlik hissi, merosiy qalam qarshisidagi mas‘ullikdan tug‘ilgan.

Anglashiladiki, kuzatilgan misollarda qahramonning shakllanish yo‘li to‘lig‘icha milliy zaminda kechadi. Buni romanlar struktur qatlamidagi mifologiya, ertakona sarguzasht, eposga xos romantika ham tasdiqlaydi. Zotan, bo‘z yigitni dinamik o‘stirib borib, Eranga aylantirish yozuvchi ijodiy niyatidayoq ko‘zda tutilgan. Shuning uchun, barcha struktur-semantik parchalar bosh maqsad negizida adabiy montaj usulida yagona kompozitsion markazga jipslashadi. “Ozod” va “Yo‘l” romanlaridagi safar, sinov, homiy kabi motivlar ham bu asarlar milliy zamindan oziqlanishini tasdiqlaydi. Jumladan, “Ozod” romanidagi safardan murod ma‘shuqani izlash emas, balki afsonaviy tog‘ lolasini topib, bo‘lajak ayoliga (Oydin) hadya etishdir. Ozodning hamdami ham Shopur (Navoiy, “Farhod va Shirin”) yoxud Navfal (Navoiy, “Layli va Majnun”) dostonlaridagi kabi real shaxs sifatida tasavvur qilinmaydi. Chunki uning yaqin hamdami shamol edi.

Diqqat qilinsa, shamol Ozodning kamol topishiga mutanosib tarzda yo‘lboshlovchi donishmand zot, ziyrak roviy, nihoyat ilohiy inoyat mujdasi kabi ierarxik ketma-ketlikda namoyon bo‘ladi. U qahramon ma‘no dashtlari – sinov manzillarida kuzatgan kutilmagan voqea-hodisa, timsol va ramzlarni sharhlab, talqin qilib boradi. Shamolni ustoz bilgan Ozodning fikri, his-tuyg‘ulari, istak va tushunchalari tobora teranlasha boradi. Bu teranlik va ma‘naviy-ruhiy yuksalish yo‘li uning tegrasida jilvalangan zohiriy manzara-holatlardan botiniy mohiyatga tomon ildamlash tarzida kechadi.

Ozod ko‘zlagan maqsad (borish manzili) aniq, intilishlari e‘tiqod-ishonchga esh, hamdami (piri komil) ekani bois, tasvir davomida barcha ishoratlar asrori ayonlashib, uning qalb ko‘zgusi va ruh oynasida olam akslana boshlaydi. Nafis so‘zga jo etilgan ilm-hikmat (zohiriy darcha)dan ma‘no qatlami (botini)ga nazar tashlash oqibat (manzil)ga eltadi. Demak, maqsad aniq va e‘tiqod ishonchli (“yo‘l” to‘g‘ri tanlangan) ekan, g‘aroyibotlar ham ong-shuurda shunga vobasta tarzda jilvalanib, uni haqiqatga eltadi. Ozodning qalb ko‘zi donishmand kishi (zohiran ko‘r, ammo qalb ko‘zi ochiq) vositali ta‘siri ostida ochiladi. Chunki, endilikda u

ma’no “tarixi”ga kirgan, majozlarda nihon va so‘z ma’nolarida oshkor haqiqat asrorini ilg‘ay boshlagan edi. Shuning uchun, Oybek qalamiga mansub:

*Nafis chayqaladi bir tup na’matak,  
Yuksakda, shamolning belanchagida.  
Quyoshga ko’tarib bir savat oq gul,  
Viqor-la o’shshaygan qoya labida...  
Shamol injular separ chashmadek...<sup>3</sup>*

misralari Ozod uchun jo‘n xabar emas. Zotan, bu zohiriy axborot zamirida kommunikativ muloqotga imkon beruvchi ko‘plab ma’nolar yashirin. Jumladan, Ollohning inoyati shu qadar ulug‘ki, u zot go‘zallik va xunuklikni hamisha yonmayon bunyod etadi. Oybek dahosigina o’shshaygan qoya labida turgan “na’matak” atalmish bir giyohda o’sha azaliy go‘zal uyg‘unlikni his etadi. Shoir o‘z anglamlaridan hayrat tuyadi. Chunki, bu yaratiq nainki o‘zining qo‘l yetmas yuksaklikdagi munosib o‘rni, balki ma’sum, mayin va yorqin tabassumi bilan bir savat oppoq gul ulashish, hatto vahshiy toshlarga fusun baxshida etish va shamolda nafis chayqalishdek go‘zal harakatlari bilan ham inson qalbini oqlik, poklik, bokiralikka burkash, tuyg‘ularini muvozanatdan chiqarib, she’riy ilhom qo‘zg‘ash, ko‘ngil hollarini so‘zga evirishga qodir.

She’r bitilgan kezlarda Chimyonda A.S.Pushkin dahosidan ijodiy ilhom olib, “Yevgeniy Onegin” romantik dunyosida yurgan va ijtimoiy buhronlardan zada bo‘lgan qalbiga sohir tabiat qo‘ynidan imdod izlagan Oybek sinoatlarga to‘la borliq bilan yuzma-yuz keladi. Tabiat bilan tillashish asnosida, majozdan ruhan uning ijodkori tomon boradi. Hayratini so‘z gavharlariga marjondek tizadi. Shu tariqa majozning zohirida yashirin va ishoratlarda namoyon sir so‘zda oshkor bo‘ladi.

Biz romanda o‘z yaqin hamdami taxir qismatiga achinib, tinmay ko‘z yosh to‘kayotgan majnuntol detaliga duch kelamiz. Bu o‘rinda adib Mirtemirning “Betobligimda” she’ri semantik mazmuniga ishora qiladi. Agar kitobxon 1972-yilda bitilgan mazkur she’rning umumiy ruhi va so‘nggi satrlarida shoir oshkor etgan ko‘ngil holidan bexabar bo‘lsa, roman ishoraviy mazmunida keluvchi ma’noni ham ilg‘amaydi. She’rda Mirtemirning sho‘ro davri siyosiy g‘avg‘olari, qamoqxona azoblari va mafkuraviy zug‘um ostida yashab, bir dam nafas rostdashga fursat va imkon topmagani aks etgan.

Aslida, Mirtemirda qushlar chug‘urida mujassam borliq simfoniyasini tinglab, xayol ummoniga sho‘ng‘ib, ijod qilishdan o‘zga tilak yo‘q. Afsuski, u bir umr ko‘ngilning ana shu tilagiga yetishish imkoniga ega bo‘lmadi. Shoir o‘zini o‘zidan gizlash – ko‘ngilni u tilagan ne‘matdan cheklashga majbur edi. Inson umri o‘z poyoniga yaqinlashayotganini his etgan sari, o‘tgan hayotini sarhisob etadi. Shoir

<sup>3</sup> Oybek. MAT. Ikkinchi tom. – T.: Fan, 1975. – B. 22

betobligida ana shu holni kechinarkan, unda ichki bir g‘ashlik paydo bo‘ladi. Bu tuyg‘u uni so‘ngsiz iztiroblar alangasiga tashlaydi. Muhimi, shoirning lirik qahramoni shu holatda uzoq qolib ketmaydi. U suv bo‘yida bir umr ma‘yus turgan majuntol qoshiga oshiqadi. Bu tasvirda ko‘ngilga oralagan g‘ashlik va daraxtning holi o‘rtasida ajib uyg‘unlik bor. Biroq, ayni lahzada u majnuntoldan keskin farqlanadi ham. Sabr kosasi limmo-lim to‘lgan kezda shoir qo‘rquv hissini yengib, isyonkor odam sifatida xitob qiladi:

*Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,*

*Men uchun yig‘lasin, men yig‘lab bo‘ldim.<sup>4</sup>*

Ko‘rinadiki, “Ozod” romani qahramoni so‘z vositasi bilan ifodalangan xabardan uning ijodkori ko‘nglini anglash sari ildamlaydi. Savobga ilhaq ustozlar Oybek va Mirtemir ruhini shod etish uchun duoga qo‘l ochadi. Shu tariqa, kitobxon ham ma‘no va ishoratlar olamiga kirib boradi. U Ozodga hamroh bo‘lib kelayotgan (“aravaga qo‘shilgan ot”, “ko‘zga ko‘rinmas arslon”, “qarg‘a”, “kuchuk”, “toshbaqa va chayon”, “popishak”, “hudhud”, “qumri”) kabi tabiati va hayot tarzi turfa xil bo‘lgan majozlarga yashirin ma‘nolar haqida o‘ylay boshlaydi. Shunda, Icajon Sulton ishora qilayotgan “yog‘ochlari baquvvat, g‘ishtlari pishiq uy” – adabiy meros qarshisidan chiqib qolganini anglaydi. Yuqoridagi majozlar kitobxonni xalq og‘zaki ijodidan Navoiy va Gulxaniygacha cho‘zilgan olis yo‘l – bebaho meroslar sari boshlaydi.

Demak, donishmand chol bejiz otasining chorlovi bilan qadrdon uy, va keng oshiyonli ayvonga oshiqmayotgan, qumg‘onda damlangan choyni ta‘mi boshqacha bo‘lishiga ishora qilmayotgan ekan. Anglashiladiki, ishoralar go‘zal yo‘lko‘rsatkichlardir. Ularga qarab ildamlagan kitobxon ahli donish bilan suhbat zohirda emas, balki so‘zga jo qilingan kitoblar bilan muloqot orqali kechishini bilib oladi. Kitoblarning “ta‘mi”ni bilish esa, kishini boshqa dunyolarga daxldor qilib qo‘yadi.

<sup>4</sup> Миртемир. Ёдгорлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б.140